

“TASDIQLAYMAN”

Andijon davlat universiteti rektori
A.S.Yuldashev

2017 y.



“Talabalar o’zlashtirishi haqida ma’lumot olish” interaktiv xizmati reglamenti

1. Xizmat tarifi

1.1. Xizmat nomlanishi:

Qisqa nomi: “Talabalar o’zlashtirishi haqida ma’lumot olish”.

Kengaytirilgan nomi: Andijon davlat universiteti rasmiy sayti orqali “Talabalar o’zlashtirishi haqida ma’lumot olish” interaktiv xizmati.

1.2. Xizmat natijasi:

Bakalavriat va magistraturada ta’lim olayotgan talabaning fanlardan o’zlashtirish natijalarini monitoring qilish

1.3. Xizmat ko’rsatuvchi organlar:

- Andijon davlat universiteti

1.4. Huquqiy asoslari:

- O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to’g’risidagi Nizomini tasdiqlash haqida”gi buyrug’i

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar:

Universitet talabalari

1.6. Xizmatdan foydalanish muddatlari:

O’quv yili davomida

1.7. Bajirilish muddati:

Javob berish murojaat jo’natilishi bilan onlayn taqdim etiladi

2. Xizmatdan foydalanuvchini xabardor qilish

2.1. Ma’lumot tarkibi va hajmi:

Murojaat etgan arizachiga quyidagi axborot berilishi lozim:

- xizmat reglamenti mavjudligi va reglamenti bilan tanishish usullari;
- talabalar o’zlashtirishi haqida ma’lumot olish;

2.2. Batafsil ma’lumot olish:

Talabalar o’zlashtirishi haqida ma’lumot olish xizmati to’g’risida axborot berish universitet rasmiy sayti orqali amalga oshiriladi

2.3. Xizmat ko’rsatish manzili haqida ma’lumot olish:

Universitet ma’muriy binolarining joy manzili va jamoat transporti yo’nalishlari raqamlari bilan birga ko’rsatiladi.

3. Ish vaqtlari va murojaat javoblarini kutish vaqtlari

3.1. Ish vaqtlari:

Xizmat ko’rsatuvchining ish vaqti dushanba-shanba kuni soat 9⁰⁰ dan 17⁰⁰ga qadar.

3.2. Murojaat javoblarini kutish vaqtlari:

1 kun

4. Xizmat ko’rsatish tartibi

4.1. Zarur bo’lgan hujjatlar:

- ERI (elektron raqamli imzo);

4.2. Xizmat to’lovi:

Bepul

4.3. Xizmat ko’rsatish bosqichlari:

Universitet rasmiy sayti orqali xizmat ko’rsatish bosqichlari:

1. Universitet rasmiy veb saytiga kiriladi;
2. "Interaktiv xizmatlar" bo'limidan "Talabalar o'zlashtirishi haqida ma'lumot olish" xizmati tanlanadi va kerakli ma'lumotlar olinadi.

4.4. Rad etish sabablari:

- Talaba akademik ta'tilda bo'lsa;
- Talabalar safidan chetlatilgan bo'lsa.

"KIRITILDI"


O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i


R. Mullajonov

" 01 " 11 2017 y.

"KELISHILDI"

Axborot texnologiyalari markazi rahbari


v.v.b. N. Mirzaalimov

" 01 " 11 2017 y.